



MAKTAB O'QUVCHILARIGA ILMIY USLUB VA UNING JANRLARI, TURLARINI O'RGATISHNING AHAMIYATI

¹Oqmonova Sevinchoy Olloyor qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar
fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi

²Atiyazov Saporbay Jumamuratovich

Ilmiy rahbar: Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Turkiy tillar fakulteti O'zbek tili kafedrasida assistenti
<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8037120>

ARTICLE INFO

Received: 06th June 2023

Accepted: 13th June 2023

Online: 14th June 2023

KEY WORDS

Annotatsiya, taqriz, tezis,
referat, ilmiy uslub, ilmiy asar,
badiiy asar, metodik asar,
rasmiiy uslub.

ABSTRACT

Ushbu maqolada maktab o'quvchilarining ilmiy uslub va uning janrlari, turlarini o'rganishning o'ziga xos ahamiyati yuzasidan nazariy fikr va mulohazalar yuritilgan bo'lib, ilmiy uslubning ifodalanish shakllari yuzasidan tushunchalar ifodalangan. Shuningdek, maqolada o'quvchilarning ilmiy uslublilik darajasini oshirishda qo'llaniluvchi janrlarning bir-biridan farqli jihatlari haqida qarashlar o'z ifodasini topgan ekanligi bilan ahamiyatlidir. Maqolada rezyumening taqriz va annotatsiya bilan farqli jihatlari va qolaversa ularning o'zaro ifodalanishi yuzasidan axborot va taqqoslilikka oid qarashlar mavjud.

Bilamizki, kishining ijtimoiy faoliyati bevosita uning ona tili bilan uzviy tarzda bog'liqlikni tashkil etadi. Shuning uchun ham ona tili o'qitish darslarida o'quvchi-yoshlarni uslublar bilan yaqindan tanishtirish va ularning uslublar doirasida erkin faoliyati va nutq shakllarini ta'minlab berishda uslubshunoslikning ahamiyati katta ekanligi bilan ham izohlanishi bejiz emas. "Uslub-so'zlovchi va tinglovchining ifodalayotgan fikrga, voqea, hodisaga shaxsiy munosabatidir. Til birliklari va materiallaridan fikrni ifodalash maqsadida foydalanish harayoni nutq sanaladi. Hayotning turli sohalari, turlicha nutq vaziyatlarida tildagi leksik, fraziologik, fonetik va gramatik vositalarni tanlash va ulardan foydalanish usullari ham har xil bo'ladi. Shunga ko'ra nutqning quyidagi uslublari o'zaro farqlanadi:

- so'zlashuv uslub;
- rasmiiy-idoraviy uslub;
- ilmiy uslub;
- publitsistik uslub;
- badiiy uslub.

Adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilgan so'zlashuv uslubi adabiy so'zlashuv uslubi deb yuritiladi".[1] Haqiqatdan ham, kishining ifodalayotgan nutq shakli qanday uslubda ifodalanishiga ko'ra uslublar bilan xoslanish yoki xoslanmasligiga ko'ra ifodalanilayotgan fikr o'zining ta'sirchanlik qobiliyatini saqlab qola olishi bilan ham izohlaniladi. Shuningdek, ilmiy uslub vositasida nutq shakllarining og'zaki yoki yozma tarzida bayon qilinishiga ko'ra ilmiy



uslubga xos bo'lgan jihatlar ham anglashilib turadi. Bunda, asosan, ifodalanilayotgan fikrning mazmun jihatidan teran va izchillikni saqlab qolgan holatda ilmiylik jihatlarini o'zida namoyon etgab va qolaversa, boshqa uslub jihatlariga qaraganda metodik va ilmiylik tamoyillari bilan ham ajralib turishi bilan izohlaniladi. Taniqli tarjimashunos G'. Salomov uslubga quyidagicha ta'rif bergan: "Uslub badiiy asarning umumiy jarangosi va koloriti, obrazni tahlil qilish usuli, sanpatkorning voqelikka bo'lgan munosabati, printsipidir. Bular badiiy jarayonning yakunlovchi bosqichida shaklning asosiy tomonlarini yaxlit aks ettiruvchi xususiyat sifatida asarda zohir bo'ladi. Uslub yozuvchi ijodining uning asarlarida takrorlanib turadigan asosiy, tipik g'oyaviy-badiiy xususiyatlari majmuidir. Yozuvchining dunyoqarashi va u yaratgan asarlarning mazmuniga aloqador asosiy g'oyalar, muallif koproq tasvirlagan syujet va xarakterlar silsilasi, sanpatkor ijodida tez-tez uchrab turadigan badiiy tasvir vositalari, o'ziga xos tili uning individual uslubini tashkil etadi".[2]

Annotatsiya. Annotatsiya bu ilmiy uslub vositalarini opzida namoyon qiluvchi ilmiy uslubning tarkibiy qismi bo'lib, bunda, sharh, izoh berilayotgan mavzu doirasiga nisbatan qizqacha mazmuniy izoh tarzida ham ifodalaniladi. Annotatsiyaning ifodalanilishida ilmiy-amaliy fikrlarning teran yoki anglashilayotgan fikr va mulohazalarning bosqichma-bosqich tarzda ifodalanishiga erishiladi. Shuningdek, annotatsiya ilmiy maqolalarga nisbatan keng tarzda qo'llaniluvchi termin ham hisoblanib, ilmiy referat. Ilmiy maqola, metodik qo'llanma va shu kabi ilmiylik darajasiga ega bo'lgan tarkibiy qismlarning qisqacha mazmunini ochib berishga xizmat qiluvchi birlik sifatida qo'llaniladi va annotatsiya deb yuritiladi. Ilmiy maqolalarda keltirilgan annotatsiyaning ham ifodalalanish jihatidan o'ziga yarasha tartib qoidalar mavjud ekani bilan ham ifodalaniladi. Shuningdek, annotatsiyaning hajm va shakl jihatidan qo'llaniluvchi tartib qoidalaridan biri ilmiy maqolalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra annotatsiyaning ilmiy maqola bilan uzviy aloqadorligi yuzaga chiqib, ilmiy uslubning boshq uslublarga qaraganda farqli jihatlari va qo'llanilish usullarini ochib berishda asos vazifasida xizmat qilishi bilan ham ahamiyatlilik darajasini saqlab qolgan deyish mumkin. Annotatsiya ilmiy uslub janrlarining o'ziga xos tartib va mezonlarda ifodalanish shakllari mavjud ekanini to'g'ridan-to'g'ri ochib berishga xizmat qiladi. "Badiiy asar muallifidan farqli ravishda, publitsist yozuvchi, avvalo, o'z nutqini keng omma, shuningdek oddiy xalq uchun moslashtirishi, muvofiqlashtirishi kerak bo'ladi. Shunga ko'ra birinchidan, nutqda soddalikka intilishi, ikkinchidan, nutqni jonli muloqot shaklida olib borishi, uchinchidan, o'zi ifodalamoqchi bo'lgan fikrini yetkazishda, ommaga ta'sir ko'rsatishda til imkoniyatlaridan faol foydalanishga erishishi taqozo qilinadi. Demak, bularning barchasi publitsist – yozuvchi tilning ifoda uslublaridan, til vositalaridan mohirona foydalana bilishini taqozo qiladi. Prezidentimiz tomonidan yozilgan asarlarni shu jihatdan kuzatadigan bo'lsak, uning tilimiz imkoniyatlaridan mohirona foydalanganligidan tashqari, mustaqillik davriga xos bo'lgan ko'plab ijtimoiy-siyosiy sohaga oid terminlar qo'llaganligi, shu soha terminologiyasini rivojlantirib, yangi so'z va so'z birikmalarini iste'molga olib kirganligining guvohi bo'lamiz".[3] Haqiqatdan ham, ilmiy asarlarning yaratilishi va tahlil etilishida jamiyatimizda keng qo'llaniluvchi so'zlarning ilmiy shakllari ham ifodalanishi bilan ham ahamiyatlilik darajasini yo'qotmay kelmoqda.

Ilmiy uslubning yana bir janrlaridan biri shuki, asarlarga nisbatan beriluvchi xulosaviy qismlar taqdriz deb atalib, muallifning yyutuq va kamchiliklari ayni taqdrizda taqdrizchi



tomonidan ochib berilishi bilan ifodalaniladi. Shuningdek, taqrizda asarning kamchiliklari va yutuqlari bilan birgalikda adabiy til normalariga va uslubiy xoslangan yoki xoslanmagan ekanligi bilan ahamiyatlilik darajasini oshiradi. Umumiy qilib aytganda, taqrizlar quyidagi asar turlariga nisbatan ishlatiladi. Ular quyidagicha:

1. Ilmiy asarlar;
2. Badiiy asarlar;
3. Metodik asarlar

Ona tili darslarida asosan, uslublar va uslubiy xoslanishlar nuqtai nazaridan kelib chiqib, mashq va topshiriqlar vositasida ifodalanilayotgan nutq shakllarining mavjud uslublar bilan ifodalanishi uslubiyatning tilshunoslikdagi tutgab o'rne va rolini belgilab berishga xizmat qiladi. Shundau qilib, ilmiy uslubning funkional vazifalarining bajarilishi hamda ularning boshqa uslublar bilan o'zaro mutanosiblikda amalga oshirilishi ham ilmiy uslubning darajasi boshqa uslublarga qaraganda bir qadar yuksak turishini sezish mumkin. Shu boisdan ham ilmiy uslub boshqa uslublarga qaraganda qiyin va anglashilish darajasi qiyin ekanligi anglashiladi.

References:

1. Kurboniyozov Gulmirza, Jalilov Sadaddin. Amaliy o'zbek tili. Nukus "Nur-Turan-Print" 2023
2. S a l o m o v G'. «Tarjima tashvishlari», G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va sanhat nashriyoti, -T.:1983, -B.16
3. Abdunosirova Zarinaxon Anvarjon qizi. Ijtimoiy-siyosiy asar uslubini tarjimada aks ettirish tamoyillari. Scientific progress